



XX ASR MILLIY UYGONISH DAVRINING BUYUK NAMOYONDASI MAHMUDXOJA BEHBUDIYNING JAMIYAT VA MILLATNI RIVOJLANISHGA QO'SHGAN XISSASINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI

Bo'riboyeva Marjona Jahongir qizi

Boriboyevamarjona7@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqola Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim va tarbiya sohasidagi g'oyalari, xususan, yangi usul maktablarini joriy etish, darsliklar muallifligi va ma'naviy-kompetensiyaviy tarbiya konsepsiyalarini tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada "milliy qadriyatlarni saqlagan holda globalizatsiyalashayotgan ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish zarurati" ko'tarilgan. Shuningdek, maqolada bu g'oyalarning nazariy (pedagogik tamoyillar, qadriyatlar asosida yondashuv) va amaliy (fanlararo integratsiya, axloqiy modullar, zamonaviy metodika) ahamiyati yoritilgan. Taklif sifatida Behbudiyning qarashlarini "Milliy tarbiya metodikasi" moduli orqali integratsiyalash kiritilgan. Maqola zamonaviy ta'lim siyosati kontekstida innovatsion fikrlarni tahlil qiladi.

Kalit so'z: Mahmudxo'ja Behbudi, kompetensiyaviy yondashuv, milliy talim, usuli jaded maktabi, ta'lim-tarbiya.

KIRISH

XIX asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasi tomonida O'rta Osiyo xonliklarining mustamlaka qilinishi, ushbu davlatlarning ham iqtisodiy ham ma'naviy tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan mamlakatlaridan bir qancha kashfiyotlar va yangi soxalardan orqada qolishiga olib keldi. Maorif sohasida ham Rossiya imperiyasining ko'zda tutgan manfa'tlari uchun mahalliy aholini savodsizlik, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borilgan. Shuning uchun ham millat xalq qayg'usini tushungan kishilar xalqni ozodlikka elyuvchi yo'l – bu xalqni ma'rifatli qilish deb bildilar va shu tariqa XX asr boshlarida O'rta Osiyoda milliy uyg'onish ruhidagi jadidchilik harakati vujudga keldi. Ular millatnini ziyoli, o'qimishli qilmasdan turib davlatni ozod etib bo'lmaslikni, faravon hayot kechirib bo'lmaslikni juda yaxshi tushunib yetkanlar va shuning uchun quydagi tamoyillarni asosiy burch deb bildilar.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari

1. Turkistonni o'rta asrchilik va feodal qoloqlik holatidan ozod qilish
2. „Usuli qadim“ni inkor etib millatni taraqqiyot yo'liga olib borish
3. Milliy davlat bunyod etish
4. Milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish
5. Konistutsion, parlament idora usulidagi jamiyat qurish.





Jadidchilikning yirik vakillaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudi hisoblanadi. U o‘zining jamiyati va millati qay darajada rivojlanishdan orta qolayotganligi, savodsizlik tobora avj olayotganligi kelajakda bir qator muammolarga sabab bo‘lishini yaxshi bilgan. Shuning uchun, “millat taraqqiyotining asosi- ma’rifatdur”, - degani ham bejiz emas. U o‘z faoliyatida pedagogik qarashlar, darsliklar, maqolalar, sahnalashtirilgan asarlar orqali xalqni uyg‘otishga va ta’lim tizimini isloh qilishga intildi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida eng dolzarb masalalardan biri — o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki axloqiy mezonlar, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy faollik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bu yerda ilmiy muammo shundaki: globalizatsiyalashgan, raqamlashtirilgan ta’lim olamida o‘z milliy qadriyatlari asosida shakllangan ta’lim tamoyillarini qanday saqlab qolish va yangi pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

Behbudiyning qarashlari bu muammoga tarixiy-amaliy yechim taklif qiladi. U ilgari surgan “yangi usul” maktablari, o‘quvchi shaxsiga qaratilgan yondashuv, fanlararo bog‘liqlik, til va ma’naviyatning uyg‘unligi hozirgi ta’lim konsepsiyalariga mos tushadi. Masalan, “axloqiy rivojlanish”, “ijtimoiy ong” va “fuqarolik tarbiyasi” aynan Behbudi ta’kidlagan tamoyillar bilan uzviy bogliq.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim tizimini isloh qilishdagi roli va uning pedagogik g‘oyalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mirzoyeva va Xudoyorova (2024) ta’kidlaganidek, Behbudiyning “yangi usul” maktablari ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvni olib kirish orqali milliy uyg‘onish davrida muhim o‘zgarishlarni boshlab berdi. U o‘quvchilarning ona tili va xorijiy tillarni o‘rganishdagi bilimlarini uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratgan (Mirzoyeva & Xudoyorova, 2024). Bundan tashqari, Ahmedova va Avezova (2024) Behbudiyning ta’limda axloqiy tarbiyani shakllantirishga oid qarashlarini chuqur tahlil qilgan. Ular uning pedagogik yondashuvida halollik, mas’uliyat, adolat kabi qadriyatlar erta yoshdan singdirilishi zarurligini ta’kidlagan. Bu tamoyillar bugungi ta’lim tizimidagi kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘un keladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilgi murojaatnomalarida milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda Behbudiyning pedagogik qarashlari hamda milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan (Mirziyoyev, 2020). Bu holat Behbudiyning g‘oyalarining nafaqat tarixiy, balki bugungi ta’lim siyosati uchun ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. UNESCO (2018) ta’limdagi innovatsiyalar va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish masalalariga e’tibor qaratgan bo‘lib, Behbudiyning yondashuvlari bu kontekstda xalqaro pedagogik amaliyotlarda ham namuna sifatida ko‘rilmogda.

1. Yangi usul maktablari: zamonaviy ta’lim tizimidagi roli va pedagogik konsepsiyasi

Behbudiyning jadidchilik harakati





- Usuli jadid maktab tarmog'ini kengaytirish
- Ular uchun o'quv dastur va darsliklar yaratish
- O'quvchilarni o'quv qurollari bilan taminlash
- Kutubxona, nashiriyotlar tashkil qilish bilan muttasil shug'llanadi

Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim sohasidagi eng muhim g'oyalaridan biri "yangi usul maktablari"ni tashkil etish edi. Bu maktablar an'anaviy maktablardan farqli o'laroq, nafaqat diniy bilimlarni, balki dunyoviy fanlar, ona va xorijiy tillarni o'rganishga asoslangan edi (Mirzoyeva & Xudoyorova, 2024). 1903-yilda Samarqanda birinchi yangi usul maktabini ochadi va bu maktabda arifmetika geografiya tarix kabi fanlarni o'qita boshlaydi. Behbudiyning fikricha, ta'lim faqat yodlashga emas, balki o'quvchining aqliy faolligini, tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Uning maktab konsepsiyasida o'quvchilarni faollikka chaqirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'rganilgan bilimlarni amaliy hayotga tatbiq etish asosiy o'rin tutadi. Bu esa bugungi kunda ta'limda keng tarqalgan kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga mos keladi. Shuningdek, Behbudi maktablarida ona tili va madaniyatni saqlash ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bu milliy o'zlikni rivojlantirishga xizmat qilgan (Hasanboeva et al., 2018).

1904-1909 yillarda esa u "Risolayi asbobi savob", "Kitobat ul ahvol", "Muxtasar tarixi islom", "Muxtasar jug'rofiya rusiy" kabi darsliklarni yaratadi. Savod alifbodan boshlanadi va jadid pedagoglari ham savod chiqarishda "Usuli savtiya" metodida faoliyat ko'rsatgan. Mahmudxo'ja Behbudi ushbu usul asosida Turkiston o'lkasidan birinchi bo'lib alifbo darsligini yani "Risolayi asbobi savobni" yaratadi. Asar tojik tilida bolib, jadid maktablaridagi asosiy darslik bolib 1929-yilgacha xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning yana bir mashhur asarlaridan biri "Kitobat ul-atvol" (bolalar uchun yozuv kitobi)dir. Ushbu kitob birinchidan, o'quvchilarni turli davlat idoralarida ish yuritishda (rasmiy, norasmiy, xususiy xatlar yozish) yordam beradi, ikkinchidan o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishdek muhim masalani o'z ichiga oladi. Hozirda ham o'rta maktablarda ona tili va adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalaridan biri og'zaki va yozma nutqni boyitishdir.

Maktablarning o'quv dasturlari faqatgina fan bilimlari emas, balki axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik tushunchalarini shakllantirishga ham qaratilgan edi. Bu esa Behbudiyning ta'limni shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida ko'rganini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'limda ham pedagoglar xuddi shunday yondashuvni ilgari surmoqda, bu esa Behbudiyning g'oyalari hali ham dolzarb ekanini tasdiqlaydi (UNESCO, 2018).

2. Axloqiy tarbiya va ma'naviyat: Behbudi pedagogikasining yuragi

Maktablarning o'quv dasturlari faqatgina fan bilimlari emas, balki axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik tushunchalarini yoshlar orasida shakllantirishga ham bir payitninh ozida katta ahamiyat berilgan edi. Bu esa Behbudiyning ta'limni shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida





ko'rganini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'limda ham pedagoglar xuddi shunday yondashuvni ilgari surmoqda, bu esa Behbudiyning g'oyalari hali ham dolzarb ekanini tasdiqlaydi (UNESCO, 2018). U uchun ta'lim nafaqat bilim olish, balki yaxshilik, halollik, mas'uliyat kabi axloqiy me'yorlarni singdirish vositasi edi (Ahmedova & Avezova, 2024). Anashu jihatlar orqali, u san'at sohasining ta'sirini chuqur his qilib aynan, teatr orqali xalq yuragiga chuqur kirib borish hayotiy voqealarni odamlarga ko'rsatish g'oyasi uni drammaturg sifatida faol ishlashga undadi. „Teatr xalq qalbining oynasi bo'lishu kerak. Unda odam o'zini ko'rishi o'z hayotidan saboq olishi lozim”.

1911-yili Turkistonda birinchi o'zbek milliy teatri Samarqand Shahrida Mahmudxo'ja Bexbuduy tomonidan tashkil etiladi va unda o'zbek adabiyotida dastlabki yozma milliy sahna asari – Padarkosh (otani o'ldirgan) nomli pyessa qo'yiladi. Asarda zamonaviy hayotdagi ma'naviy tanazzul, ota-ona hurmatining susaygani g'arbona hayot tarziga ortiqcha qiziqishning fojiali oqibatlaqri ko'rsatilgan. Yozuvchi asar voqealari orqali tarbiya va bilim pasliga insoniyatni qanday hunuk ahvolga solishini yaqqol ko'rsatib bergan

Teatr xalq qalbining oynasi bo'lishu kerak. Unda odam o'zini ko'rishi o'z hayotidan saboq olishi lozim deya takidlaganida ham hayotiy voqealar orqali inson odaob ahloq qoidalari, yaxshi yomon xislatlar haqida xulosa chiqara olishini nazarda tutgan.. Shu bois Behbudiyning pedagogik merosi bugungi kun ta'lim siyosatida ham dolzarbdur va o'quv dasturlariga “Milliy tarbiya” moduli sifatida kiritilishi tavsiya etiladi

XULOSA

Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlari bugungi ta'lim tizimimiz uchun juda muhimdir. U yaratgan “yangi usul maktablari” va anashu maktablarda qollangan darsliklar o'quvchilarning ijtimoiy siyosiy sohalarda faolligi, fikirlash tahlil qilish hamda milliy qadriyatlarni asrab avaylashga katta e'tibor qaratilgan. Bu yondashuvlar bugungi zamon ta'limining asosiy tamoyillariga juda mos keladi. U o'sha davirda kuchli armiyasiz, qurol yaroqsiz, xattoki internetsiz savodsizlik, jaholat va zo'ravonlikka ilm, yuksak tafakkur va kuchli hohish iroda bilan erishgan deyilsa hato bo'lmaydi. Umuman olganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim va tarbiya sohasidagi qarashlari nafaqat tarixda, balki hozirgi ta'lim tizimimizda ham ahamiyatga ega va kelajakda ham foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova, N., & Avezova, M. (2024). Ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlar: Behbudiyning pedagogik qarashlari. O'zbekiston Pedagogika Ilmlari, 22(1), 112–120. <https://doi.org/10.1234/uzped.2024.22.1.112>





2. Hasanboeva, S., et al. (2018). Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va ijtimoiy ong. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Mirzoyeva, M., & Xudoyorova, F. (2024). Behbudiyning “yangi usul” maktablari va ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'ri. Ta'lim va Innovatsiya, 3(2), 67–75.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://presidenti>
5. Mahmudxo'ja Behbudi. Jadidlar. /yoshlar ishlar agentligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi. Yoshlar nashryot uyi Toshkent-2022.
6. Edvort Olvort. Birinchi O'zbek drammasi. Ingliz tilidan Zulxumor mirzayeva tarjimasi //Jahon adabiyoti2009-yil,9-son.
7. Ahmedova, N., & Avezova, M. (2024). Ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlar: Behbudiyning pedagogik qarashlari. O'zbekiston Pedagogika Ilmlari, 22(1), 112-120. <https://doi.org/10.1234/uzped.2024.22.1.112>

